

## O'zbek Adabiyotida Mansura Janri Taraqqiyoti

*Elmurodova Munisa G'ofur qizi<sup>1</sup>*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada mansura janri haqida ma'lumot hamda ushbu janrning o'zbek adabiyotidagi taraqqiyot bosqichlari o'rganilib, na'munalar asosida izohlangan.

**Kalit so'zlar:** nasr, nazm, rajaz, vaznli proza, nasriy proza, sa'j, sochma, nasriy she'r, mansur she'r, mansura.

Mansuralarning genezesi birinchi navbatda, "vaznli proza" ya'ni "murajjaz nasr"larga borib taqaladi. Ushbu nasr boshqa nasr turlaridan birmuncha farq qilib, nisbatan murakkabroqdir. "Murajjaz nasr"ning lug'aviy ma'nosi "vaznga solingan" demakdir. Vaznli nasr namunalari asosan, xalq prozasida, VIII asrga oid turkiy yodnomalarda, xususan, "O'g'uznoma"da uchraydi. Ushbu nasr turning asosiy omillari leksik takrorlar va saj' hisoblanadi.

VI-VIII asrlarda Turk xoqonligi hududida bitilgan yozma yodgorliklar, toshbitiklarda ham mansuraning genezisida asosiy ahamiyat kasb etadigan vaznli nasrning gaplar orasidagi hamvazlik hijolar miqdorining tengligiga asoslangan turi uchraydi: "Bu Turk bo'nduqa yaraqliq yag'ig' kelturmadim, to'gunlug atig' yo'gurtmadim. Eltarish qag'an qazg'anmasar, el yama, bo'dun yama yo'q ertachi erti. Qazg'untuqin uchun o'zum qazg'antuqum uchun el yama el bo'lti, bo'dun bo'lti. O'zum qari bo'ltim, ulug' bo'ltim. Nang yerdaki qag'anlig' bo'dunqa eburn tugi bar esar, ne bungi bar ertachi ermish."<sup>2</sup> (To'nyuquq bitiktoshidan)

XI asr turkiy xalqlar adabiyotida badiiy yuksalishning yangi bosqichi bo'ldi. Bu asrda Mahmud Qoshg'ariyning mukammal asari "Devoni lug'otit turk" yaratildi. Ushbu asar XI asrga qadar bo'lgan turkiy xalqlarning boy va rang-barang og'zaki ijod namunalari o'z ichiga oladi. Asarda nasriy she'rlar "rajaz", "nasr" atamallari bilan berilgan. Alloma turkiy so'zlarni arab tilida izohlash uchun arab folkloridagi mavjud rajaz va nasrdan foydalangan.

O'zbek mumtoz adabiyotida mansura alohida janr sifatida shakllangan bo'lsa ham, badiiy nasr namunalari mansuraga xos ritmik tizim, saj' usulidan foydalanish, uslubda jummalarning so'nggi kesim o'rnida keladigan so'zlarda fe'ldan foydalanmaslik kabi holatlarni kuzatish mumkin.

Bu jihatdan Alisher Navoiyning "Mahbub ul-qulub", Boburning "Boburnoma" va Xojaning "Gulzor" asarlari yaxshi material beradi. Shuningdek, bu davrda yaratilgan Ahmadiyning "Sozlar munozarasi", Yusuf Amiriyning "Bang va chog'ir munozarasi", Yaqiniyning "O'q va yoy munozarasi" kabi asarlarda nasriy she'r hamda saj' elementlaridan keng foydalanilgan. Alisher Navoiyning ushbu asariga ham falsafiy xulosalarini, ham badiiy mahoratini to'la namoyon eta oladigan shakl tanlagan. Ushbu asar allomaning ham xalq prozasi xususiyatlarini, ham arab, fors-tojik prozasining poetik jilolarini qay darajada bilganligini va ulardan amaliyotda qay yo'sinda foydalana olganligini ko'rsatib turadi. Asar asosan vaznli nasr va saj'da yozilgan. Asarda foydalanilgan maqol va aforizmlardagi saj' fikrni ixcham, ravon ifodalashdan tashqari, ulari osonlikcha yodda saqlanib qolishini ta'minlaydi. Asarda adib ayrim xislatlar ta'rifida lirik chekinishlar yasaydi va shu o'rinlarda saj'dan unumli foydalanadi. "Dehqonki, dona sochar, yerni yormoq bila rizq yo'lin ochar. Agar rostliq va salohi bordur, o'yi Solih noqasidin namudordir. Qo'shi ham ikki zo'r pahlavon, yukiga bo'yun sunub olida ravon; ish qilurda hamdam va hamqadam, dehqon alarni suradi andoqki Odam. Olam ma'murlig'i alardin, olam ahli masrurlig'i alardin. Har qayon qilsalar harakat, elga ham qut yetkurur, ham barakat.

<sup>1</sup> Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti O'zbek filologiyasi fakulteti magistranti

<sup>2</sup> Adabiyot majmua. Cho'lpon nomidagi adabiyot matbaa ijodiy uyi, 2007. – B. 42.



Dehqonki, tuzluk bila dona sochar, Haq biriga yeti yuz eshigin ochar. Sochqon dona ko‘karguncha, o‘rub xirmon qilib, mahsulini ko‘targuncha qurt-u qush andin bahramand va dasht vahshilari aning bila xursand. Mo‘rlar uyi andin obod va go‘rlar xotiri aning bila shod.”<sup>3</sup>

Keltirilgan nasriy parchadagi fikr salmog‘i, hissiyotlar saj’ vositasida shunday mutaassir ifodalanganiki, bunday o‘rinlar har qanday poeziyadan qolishmaydi. Parchada keltirilgan kesim vazifasidagi so‘zlarni saj’lantirish orqali Navoiy o‘z fikrlarini tugal hukm tarzida, ixcham va ravon ifodalagan.

Boburning “Boburnoma” asari o‘ziga xos sodda, ayni paytda o‘quvchini o‘ziga tortadigan jozibadorlik bilan yozilgan bo‘lib, asar o‘sha davrdagi adabiyotlarda tashfiq qilingan hashamdorlik, jimjimadorlik va yaltiroqlikdan holi tili bilan xalqqa yaqin bo‘lgan. “Boburnoma”da keltirilgan joy nomlari, u yoki bu tarixiy shaxslar xarakteri haqidagi o‘rinlar nasriy prozaning yorqin namunalari hisoblanadi. “Yaxshi viloyoti va tumonoti bor. Ulug‘ viloyatkim, Samarqand qarinasidur, Buxorodur. Samarqandning g‘arbiy tarafi yigirma besh yig‘och yo‘ldur. Mevasi ko‘p bo‘lur va xo‘b bo‘lur, qovuni bisyor yaxshi bo‘lur. Movorounnaharda Buxoro qovunicha ko‘p va xo‘b qovun bo‘lmas. Agarchi Farg‘ona viloyatidin Axsining bir nav qovunikim, “mir temuriy” derlar, muning qovunidin chuchukroq va nozukroq bo‘lur, vale Buxoroda har jins qovundin ko‘p bo‘lur va yaxshi bo‘lur.”<sup>4</sup>

Ushbu parchada nasriy proza elementlari yaqqol sezilib turibdi. “Boburnoma”da saj’ qo‘llanish jihatdan sodda bo‘lsada, biroq u kuchli semantik funksiyani bajargan. Sababi Bobur saj’ni bezak, jimjimadorlik yohud fikrni dabdabali, balandparvoz ifodalash uchun emas, aksincha, fikrni ixcham, soda, lo‘nda, ta’sirchan ifodalash maqsadida foydalangan.

Ibodullo Sayid Podshoxoja binni Abduvahhobxojaning “Gulzor” asari XVI asr o‘zbek badiiy nasrining go‘zal namunasi. Asarda an’anaviy kirish qismida va keltirilgan kichik hikoyatlarda nasriy proza va saj’ unsurlaridan foydalanilganligiga guvoh bo‘lamiz. Kirish qismidagi saj’lar asosan balandparvozlik, jimjimadorlikni taminlash maqsadida qo‘llanilgan. “Adilda ikki foyda bor turur, zulmda ikki zarar bor turur. Adldagi ikki foydaning biri buki, mamlakat obodon bo‘lib, raiyat ma‘mur bo‘lur. Yana birisi bukim, odil podshoh haq taologa manzur bo‘lur. Va yana zulmning ikki zarari borkim, mamlakat vayron bo‘lib, raiyat xarob bo‘lur. Va yana birisi bukim, zolim podshoh do‘zax o‘tig‘a giriftor bo‘lub, kabob bo‘lur.” Keltirilgan parchadan ko‘rinib turibdiki, Xoja odil podshoh tarafdori bo‘ib zolim podshohlarni ochiq tanqid qilmay, ularni do‘zax azobi bilan qo‘rqitish orqali o‘z munosabatini bildiradi. Mana shu subyektiv-emotsional munosabat o‘z-o‘zidan saj’ qo‘llashni taqazo etadi. Sajlangan so‘zlar esa qaysi tilga mansubligidan qat’i nazar muallifning adolat va zolimlikka nisbatan bo‘lgan munosabatini ravon ifodalashga xizmat qiladi.”<sup>5</sup>

XX asr boshlarida A.Fitrat Yurt qayg‘usi nomi ostida 3ta sochma e‘lon qilgan. 1. Yurt qayg‘usi (sochma). 2. Yurt qayg‘usi (bir o‘zbek tilidan) 3. Yurt qayg‘usi (Temur oldinda.) Hurriyat gazetasida e‘lon qilingan bu sochmalarda badiiyat bilan birga pubtikistik ruh ustuvor bo‘lib, ularning umumiy mavzusi Vatan, uning ozodligi va obodligi bo‘gan. Ustoz Fitrat qalamiga mansub sochmalarda badiiylik bilan bir qatorda publitsistik ruh ustuvorlik qiladi. Saj’dan unumli foydalanish asar ritmikasing yanada ohongdor bo‘lishini ta’minlagan. Hajman yirik bo‘lmagan ushbu badiiy parchalar o‘zbek adabiyotida ilk bor “sochma” termini ostida e‘lon qilingan asarlardir.

Ustoz Fitrat bilan bir qatorda Cho‘lpon ijodida ham sochma, nasriy she‘r namunalarini ko‘rishimiz mumkin. Adib “Safarnoma”sida yo‘l esdaliklarini o‘ziga xos uslubda yozadi. U na nasr qoidalariga, na nazm qoliplariga tushmaydigan, ayni damda har ikkisidan parcha bo‘lgan – nasriy she‘r, sochma ko‘rinishlarida yozilgan. Cho‘lpon shaxsiyati va shariatini ozodlik orzusidan, hurlik fikridan holi tasavvur etib bo‘lmaydi. U butun hayotini ozodlikka bag‘ishlagan. Ozodlik uni shoir qilgan desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Uning muhabbat haqidagi eng tuyg‘uli she‘rlarida ham ozodlik, ozod inson haqidagi fikr markazda turadi.

<sup>3</sup> Navoiy A. Mahbub ul-qulub. T.: Yoshlar nashriyot uyi, 2018. – B.38.

<sup>4</sup> Bobur Z.M. Boburnoma. T.: Yulduzcha nashriyoti, 2015. – B. 84

<sup>5</sup> Sarimsoqov B. O‘zbek adabiyotida saj’.- T.: Fan, 1978. – B. 127.



XX asr o‘zbek adabiyotining yirik vakillaridan biri Muso Toshmuhammad o‘g‘li Oybek ijodida ham o‘zi nomlagan “Mansur she’rlar”ni uchratamiz.

Adabiyotimizning keyingi davrlarida o‘zining sermazmun, mo‘jaz sochmalari ila ushbu janr taraqqiyotiga ulkan hissa qo‘shgan shoir Mirtemir serjilo sochmalarida turli xil mavzulaga murojaat qilgan. Uning sochmalarida samimiylik, hayotiylik, haqiqat, soddalik ufurib turadi. Adib o‘rni kelganida sochmalarda folklor an‘analaridan ham unumli foydalanadi. Shoirning 1974-yilda “Tingla, hayot!” nomi ostida e‘lon qilingan kitobi tarkibiga birqator sochmalar ham kiritilgan.

XX asrning 60-70-yillarida nasriy she’rning go‘zal namunalarini qiyomiga yetkazib yaratgan ijodkor Rauf Parfidir. U XX asr o‘zbek xalqining nafaqat orzu-armonlari, alamlari shu qatorda tafakkur madaniyati, qalb zarbalari, o‘zbekona milliy ruh bilan boyitdi. Ijodkorning “Sakina” nomli saylanmasi tarkibida nasriy she’r namunalariga duch kelamiz.

“XX asr o‘rtalari “ XXI asr boshlari o‘zbek badiiy madaniyatida Turkistonda millatparvarlik ruhini barqaror qildi. Adabiyotda millatsevarlik, vatanparvarlik, milliy ruhni yangi bosqichga ko‘tardi. Shu ma‘noda, XX asr boshlari Cho‘lpon va asr o‘rtalaridan XXI asr tonglaridagi estetikasining ma‘naviyat va madaniyat uchun xizmatlari uzviy va baland. Shu ma‘noda, Cho‘lpon yo‘lini tutgan Rauf Parfi o‘zbek ruhini, o‘zbek so‘zining qadri va qaddini ko‘targan, madaniy-manaviy qadryatlarini yangilashga, takomillashtirishga, rivojlantirishga intilgan munavvar shaxsdir.”<sup>6</sup>

XX asrning 70-yillarida nasriy she’r janrida samarali va barakali ijod qilgan yana bir adib borki, uning nasrdagi nazmlari o‘zining soddaligi, samimiyligi, o‘yinqaroq ohangi va yengil o‘qilishi bilan ajralib turadi, u adib Omon Matjon. Ijodkorning “Quyosh soati” kitobi nasriy she’rlardan tashkil topgan.

Omon Matjon she’riyati mavzular ko‘lamidan ham, obrazlar xilma-xilligidan ham boshqa shoirlar ijodidan ajralib turadi. Shoir she’riyatida o‘ziga xos ritm majud. Uning she’riyatida mumtoz an‘analar zamonaviy she’riyatdagi metaforalar bilan qorishiq holatda uchraydi. Bunda poetik mushohada asosiy maqsadga qaratiladi.

XX asrning 80-yillarida mansur, sochma, nasriy she’r shakllardagi izlanishlar Ibrohim G‘afurovning uzoq yillik zahmatli mehnati samarasi o‘laroq janr sifatida shakllandi. Bu janr nisbatan murakkab, sababi she’riy ohangni nasrga singdira olish lozim. Keyingi yillarda o‘zbek lirikasi janrlari tizimidan mansura nomi bilan qat’iy joy oldi. Adibning ilk mansuralarida ruhiyat tasviri yetakchilik qilgan. Adibning tarjimonlik faoliyati mansuralarda ham o‘z aksini topgan. Ijodkor mansuralarida sharqona donishmandlik g‘arbona ruhiyat bilan omixtalashib o‘zgacha ma‘no-mazmun kasb etgan.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Adabiyot majmua. Cho‘lpon nomidagi adabiyot matbaa ijodiy uyi, 2007. – B. 42.
2. Navoiy A. Mahbub ul-qulub. T.: Yoshlar nashriyot uyi, 2018. – B.38.
3. Bobur Z.M. Boburmoma. T.: Yulduzcha nashriyoti, 2015. – B. 84
4. Sarimsoqov B. O‘zbek adabiyotida saj’.– T.: Fan, 1978. – B. 127.
5. Парфи Р. Сакина.- Т.: Мухарир,2013. – Б. 41.

<sup>6</sup> Парфи Р. Сакина.- Т.: Мухарир,2013. – Б. 41.

